

BUXORO AMIRLIGIDA MUKOFOTLASH TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXIDAN

O'tkirov A. F.

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Kirish. Buxoro amirligida olib borilgan mukofotlash tizimi o'zining uzoq yillik tarixiy asosiga ega bo'lib, amirlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilash, xalqning amirlik hayotida faol ishtirokini ta'minlashda asosiy omil sanalgan. Buxoro amirligi tarixida mukofotlash mexanizmi amirlikda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ma'naviy-madaniy islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligida mukofotlash tizimi tarixini tahlil etar ekanmiz, ushbu davr mobaynida mukofotlash tizimining bir qator o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligi mukofotlash tizimi tarixiga oid ko'plab izlanishlar olib borilgan va bir qator fundamental ilmiy asarlar yaratilgan. Jumladan, mang'itlar sulolasining mukofotlash tizimini takomillashtirishi to'g'risida P.P.Ivanov [5], N.V.Xanikov [12], F.X.Bobojonova [3], G.B.Normurodova [9], L.Q.Asrorova [2], A.T.Zamonov [4] kabi olimlar tomonidan turli xil yondashuvlar ilgari surilgan. Biroq, ushbu asarlar ilmiy qiymatini inkor etmagan holda alohida taqlil etsih mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tahlil usullari. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga izchil amal qilindi.

Natijalar va muhokama. Buxoro xonligi amirlik sifatida o'z faoliyatini davom ettirgach, mukofotlash, taqdirlash ishlariga katta e'tibor qaratilib, rivojlanib borgan. Jumladan, Buxoro amirligida moddiy ta'minot ham alohida o'rin egallab, u qadim zamonlarda yuzaga kelib, Buxoroda o'ziga xos shaklga ega bo'lgan va amirlik tugatilishigacha qadar saqlanib qolgan. Masalan, A.Zamonov tadqiqotlariga ko'ra, Buxoroda amirlikdan oldin xonlik davrida harbiylarning hukmdor tomonidan taqdirlanishi, ularning qo'shin safidagi darajasiga ko'ra bo'lganligi quyidagicha tahlil etilgan: birinchi, oliy darajadagi mansab egalari zardo'zi to'nlari, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar, dastasi qimmatbaho tosh va metallardan ishlangan qilich va xanjarlar, oltin naqdinalar, chodir hamda egar-jabdug'i qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan to'ybichoq (chopqir ot), egar-jabduq, nog'ora, tug', kuloh, tuya va asirga olinib, cho'riga aylantirilgan joriyalar in'om etilgan. Ikkinchi, qo'shin safidagi oddiy askarlarga esa o'zlaridan yuqori lavozimdagilarning ularga o'z qilichi yoki boshqa harbiy qurolini ma'lum jasorat evaziga hadya qilishi, harbiy anjomlardan tashqari, poyabzal, to'n va boshqa kiyim-boshlar, otlar, oltin, kumush buyumlar, chinni idishlar hamda naqd pullar berilishi singari holatlar shular jumlasidandir.

Buxoroda ko'pgina mansabdorlarga lavozimi va unvoniga mos ravishda davlatdan barcha zaruriy narsalar olish belgilangan. Masalan, Buxoroning savdo rastalaridan katta soliq yig'uvchisi (omilboshi, zakot rastasi) har kuniga yopgan non, yarim qo'y go'shti va chorak dumba olgan; guruch, sovun va shamlar unga bir oyga berilgan. Uning mirzosi har kuni yopgan non va oylik sakkiz kg qo'y go'shti, to'rt kg dumba va yarim kg sovun va shamlar olgan. Agar mirzo o'z majburiyatlarini bajarish uchun otliqdan foydalanishi kerak bo'lsa, unga yem-xashak ham berilgan. Oddiy yig'uvchilar faqat non olganlar [6, 36].

Buxoro amirligi mukofotlash tizimining tarixiga nazar tashlasak, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida ham mukofotlash tizimida salmoqli ishlar amalga oshirilganligini ko'ramiz. Masalan, Shayboniyxon boshchiligidagi yangi sulola vakillari Movarounnahr va Xuroson hududiga kirib kelar ekan, Temuriy avlodlaridan qolgan yerlarni, joylarini asta-sekin o'zlashtira borganlar. Shayboniy Temur avlodining barcha mamlakatlarini deyarli o'z tasarrufiga olgach, ularni boshqarishni mukofot yuzasidan o'zining eng yaxshi harbiylariga taqsimlab bergan. Masalan, Hirot – Jonvafo boyga, Marv – Qo'biz Naymanga, Balx – xorazmlik Sultonshohga, Hisor atrofi – Mahdiy va Hamza Sultonlarga, Qunduz – Ahmad Sultonga, Toshkent – Suyunchi Xo'jaxonga, Axsi – Jonibekka, Andijon – Mahmud shoh Sultonga, Xorazm – Qo'shchi Qo'pakka, Turkiston – Ko'chkunchixonga taqdim etilgan [13, 60].

Bunda xizmatchi insonlar, shuningdek mansabdor zodagonlarning ijtimoiy mavqei ularning iqtisodiy holati bilan belgilangan bo'lib, u lavozimdan keladigan daromadlar darajasiga bog'liq bo'lgan. Ushbu daromadlar – naqd pul maoshi va kiyim-bosh (sarpo) hadyasidan, moddiy ta'minot mahsulotlar bilan bepul ta'minlash, shartli mukofot tanho berilishidan iborat bo'lgan [10, 270-271].

Buxoro amirligida imtiyozlar va rag'batlantirish ishlari mang'it hukmdorlari tomonidan ham olib borilgan. Muhammad Rahimbiy yangi hukmdor sifatida nufuzli urug' boshliqlari, birinchi navbatda mang'it urug'i vakillariga tayanib amirlikda davlat boshqaruvi, ijtimoiy islohotlar, aholini mukofotlash masalalarida ish ko'rgan. Xususan, har ramazon oyidan so'ng mang'itlardan bo'lgan amaldorlarga 30 tangadan 100 tangagacha mukofot puli hadya etilgan [11, 188]. Masalan, amir Shoxmurod o'z siyosatida bu vositadan juda keng foydalangan. Manbalarda ta'kidlanishicha, Mang'it sulolasining hukmronligi tarixida Shoxmurod (1785–1800) hukmronligi davri amirlikni mustahkamlash vaqti hisoblanadi. Shoxmurod otasining hokimiyati davrida yuzaga kelgan ommaviy norozilikni bartaraf etish maqsadida, ayrim islohotlarni o'tkazgan. U faqatgina shariat nuqtai nazaridan qonuniy hisoblangan xiroj va zakot soliqlarini qoldirib, qolgan barcha bojlar va jarimalarni bekor qilgan. ...Oldingi amirlar tortib olgan, ko'pgina vaqf yerlarini tiklagan. Bu usul bilan u ko'pgina diniy insonlarni o'zining himoyachisiga aylantirgan va o'z obro'sini mustahkamlashda bundan juda samarali foydalangan [14, 143]. P.P.Ivanov amir Shoxmurod va uning islohotchilik harakatlari to'g'risida, imtiyozlar va rag'batlantirishlar muammosi bilan bog'liq bo'lgan malumotlarni keltirib o'tadi. Uning yozishicha, "Sug'orish ishlarini tashkil etib, davlat so'ngra qaytadan tuzilgan yer jamg'armalari yoki muhtoj aholi o'rtasida, muayyan imtiyozli muddat tugaganidan so'ng tegishli soliqlarni to'lash sharti bilan taqsimlagan yoki yerni sug'orish ishlarini amalga oshirgan shaxsga keyinchalik undan o'z ixtiyori bo'yicha foydalanishga topshirgan [143-145]. Shuningdek, amirlikda shahar

hokimlari tomonidan “tortiq” qilish holatlari ham amalda bo‘lib, Buxorodagi holatni XIX asr tadqiqotchisi N.Mayev quyidagicha izohlaydi: “amir biror-bir shaharga har gal kelganida “bek o‘z hazratiga bir ot va bir bo‘g‘cha (to‘qqizta) to‘ndan iborat sovg‘a taqdim etadi. Shahardan ketganida esa, amir bekdan 14 ta ot, 14 bo‘g‘cha (to‘qqiz) to‘n va 40–50 tangadan iborat tortiq oladi” [7, 111]. Buxoroda esa shahar hokimlari doimo oliy hukmdor bilan yaxshi aloqalarni saqlab turish maqsadida hukmdorning do‘stligi va e‘tiborini qozonish uchun guruch, ot va hatto pul tarzida sovg‘alar qilganlar [8, 138].

Buxoro amirligida shuningdek, viloyat hokimlari tayinlangan vaqtda ularni tabriklab, xazina hisobidan turli sovg‘alar yuborilgan. Jumladan, Karki viloyatiga Nasrullo to‘qsoba hokim bo‘lib kelganda an‘anaga ko‘ra xazinadan 1 ta kuloh va ro‘mol, 1 ta doka salla, 1 ta latta to‘n, 1 ta farangi to‘n, 1 ta adras to‘n, 1 ta chit to‘n, 500 tanga naqd pul, 1 ta ko‘ylak-lozim, 1 ta ot abzali va davriy, ikki nafar odamiga 2 ta shohiy to‘n berilgan [1, 17]. Yangidan sug‘orilgan yerlar, ularni to‘liq o‘zlashtirish uchun katta mehnat va mablag‘larni talab etgan va shuning uchun odatda ma‘lum vaqtda soliqlardan ozod etilgan [5, 122]. Hattoki, o‘ziga to‘q oilalarga qo‘shimcha soliq to‘lovi “ko‘sh-puli”ning joriy etilishi unchalik og‘ir bo‘lmagan va bu ham mukofotlash tizimini maqsad qilib olganligini ko‘ramiz. Ya‘ni, bu o‘z yerlarini mustaqil sug‘ora olmagan xo‘jaliklarga yordam berishdan iborat edi. Bu davlatda imtiyoz berish hamda rag‘batlantirish vositasi davlat va siyosiy boshqaruv mazmunida asosiy o‘rinlardan birini egallagan [5, 122].

Tarixchi olim G.Taniyeva tadqiqotlariga ko‘ra, amirlikda barcha sohalarida mang‘it hukmdorlari doim o‘z urug‘doshlariga tayanib siyosat olib borgan, ularning obro‘li kishilarini nufuzli davlat mansablariga tayinlashga harakat qilinib, bir qancha imtiyozlar berilganligi ham mukofotlash tizimining o‘ziga xos jihatlari sanaladi. Shuningdek, amirlik qo‘shinining eng ko‘p qismini mang‘it navkarlari tashkil etib, ular orasidan sulolaga sodiq, fidoyi va tajribali lashkarboshilarni tarbiyalash maqsadida ham mukofotlash tizimiga doir rag‘batlantirishlar amalga oshirilganligi amirlikni davlat boshqaruvini mustahkamlashga xizmat qilgan. Hatto, amirning turli in‘om, yorliq va rag‘batlantirishlariga taqdim etiladigan urug‘lar ro‘yxatida ham daftarning o‘ng burchagida birinchi o‘rinda mang‘itlardan bo‘lgan shaxslar ko‘rsatilgan [10, 28].

Xulosa. O‘zbekistonda mukofotlash tizimi tarixida tub burilishga sabab bo‘lgan tarixiy voqea hamda jarayonlar bevosita Buxoro amirligi davri bilan bog‘liq. Sababi, Markaziy Osiyo hududi jumladan, O‘zbekistonda dastlabki mahalliy faleristik belgilar aynan Buxoro amirligiga tegishli hisoblangan. Darhaqiqat, Buxoro amirligi dastlab xonlik sifatida hukmronlik qilgan – XVI asr boshlaridan mukofotlash tizimi an‘ana, odat tarzida amalga oshirib borilgan.

Yechim (taklif va tavsiyalar). XVIII asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligida mukofotlash tizimi ko‘ra, ming yillar davomida jahon miqyosidagi jarayonlar markazida bo‘lib kelgan. Buxoro amirligi mukofotlash tizimining shakllanishi, tashkil topishi va boshqaruvi, mukofotlash tizimiga doir manbalarni ilmiy muomalaga kiritish;

Buxoro amirlari tomonidan unvon va mukofotlar berish amaldorlarga turli huquq, imtiyoz va manfaatlar bergan. Ushbu imtiyozlarning ijtimoiy harakatchanlikka qanday ta‘sir ko‘rsatganini, ya‘ni quyi tabaqadan chiqqan kishilarning mukofotlash orqali yuqori maqomga ko‘tarila olishi yoki ushbu tizim amirlik saroy ayonlarini himoya qilishi masalasi alohida tadqiqot obekti sifatida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta‘kidlash joizki, Buxoro amirligi mukofotlash tizimi bugungi kunda ham jahon mamlakatlari, xususan, musulmon davlatchiligining muhim xalqasi bo‘lib, ana shu xalqada milliy davlatchilikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Азизов И.Ш. XIX асрнинг сўнгги чораги – XX аср бошида Бухоро амирлигида солиқ тизими. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2018. – Б. 17.
2. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан (Ахмаджон ибн Исмоил хон мероси). – Тошкент: HILOL-NASHR, 2016.
3. Бобождонова Ф.Х. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири – XX асрнинг бошларида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011.
4. Замонов А.Т. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви (XVI аср). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018.
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX). Москва, 1958.
6. Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. Санкт-Петербург, 1909. – С. 36.
7. Маев Н. Очерки Бухарского ханства. – Ташкент, 1875. – 111 с.
8. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – С. 138.
9. Нормуродова Г.Б. Бухоро амирлиги ижтимоий қатламлари ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги роли (1868–1920-йиллар). Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2020.
10. Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008. – Б. 28.
11. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. II китоб (XIV аср ўрталаридан – XIX аср иккинчи ярмигача) Олий ўқув юртлири тарих факультетлари талабалари учун дарслик. Масъул муҳаррир Г.А.Агзамова. – Тошкент, 2020. – Б. 188.
12. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб.: Б.И., 1843. – 279 с.
13. Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б. 60.
14. Шоев А.Т. Правовые проблемы льгот и поощрений в истории государственности Таджикистана (историко-правовое исследование). Дисс...к-та юрид. наук. – Душанбе, 2011. – С. 143.

Buxoro amirligida mukofotlash tizimining shakllanish tarixidan

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligida mukofotlash tizimining shakllanish tarixi haqida so‘z yuritiladi. Buxoro amirligi mukofotlash tizimi amirlikning o‘zi vujudga kelishiga qadar mavjud bo‘lgan Shayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi mukofotlash tizimi ta‘sirida shakllanganligi va takomillashib borganligi tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: madrasa, iqtidorli talaba, ragʻbatlantirish, unvon, moddiy ahvol, imtiyozlar, sovgʻa.

Из истории формирования системы награждений в эмирате бухара

Аннотация. В данной статье рассматривается история формирования системы вознаграждений в Бухарском эмирате. Анализируется, как система вознаграждений Бухарского эмирата формировалась и совершенствовалась под влиянием системы вознаграждений Шайбанидов и Аштарханидов, существовавшей до образования самого эмирата.

Ключевые слова: медресе, талантливый студент, поощрение, звание, материальное положение, привилегии, подарок.

From the history of the formation of the award system in the bukhara emirate

Annotation. This article discusses the history of the formation of the reward system in the Bukhara Emirate. It analyzes how the reward system of the Bukhara Emirate was formed and improved under the influence of the reward system of the Shaybanids and Ashtarkhanids, which existed before the formation of the emirate itself.

Key words: madrasah, talented student, encouragement, title, financial status, gift, privileges, gift.
